



## AZIM HOJIYEVNING O'ZBEK TILI IMLOSIDA BAZI MULOHAZALARI

Mamatqulov Azizbek

GulDU o'qituvchisi

Ixtiyor Ermatov

GulDU dotsenti, F.F.D (DSc)

Eshboyeva Fazilat

GulDU stajyor o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15239433>

### ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> April 2025

Published: 18 th April 2025

### KEYWORDS

*komponent, qo'shma so'z, arxaik so'z, tarixiy so'z.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada akademik Azim Hojiyevning o'zbek tilimlosiga doir ilmiy qarashlari, shuningdek, uning lug'atlari haqida fikrlar o'rin olgan bo'lib, shu bilan birga istiqol davrida yaratilgan o'zbek tili imlosiga bag'ishlangan lug'atlar masalasiga ham qisqacha to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga Olimning imlo masalasiga bag'ishlangan merosining bugungi ahamiyati haqida so'z borilgan.*

Akademik Azim Hojiyev o'zbek tilshunosligida nafaqat grammatikada balki leksikografiya, leksikologiya, fonetika sohalarida ham kata meros qoldirgan tilshunos olimlarimiz safiga kiradi. Olimning XX asrning yarmidan to uning umrining oxirigacha to'plagan meroslari bugungi kunda o'zbek tilining eng dolzarb mavzularida yechim kaliti o'laroq ko'rilmogda. Masalan, olimning termin tanlash mezonlariga qaratilgan ilmiy fikrlari, shuningdek, o'zbek tilshunosligining terminlari yagona kitobga jamlab lug'at tuzganligi, bugungi kunda tilshunosligimizda hali ham o'rnini yo'qotmagan. Shuning bilan birga olimning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so'ng qilgan ilmiy ishlari tilimizning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi desak yanglishmagan bo'lamiz. Bilamizki, har qanday tilning asosida uning fonetikasi yotadi. Uning tog'ri va qo'llanishli shaklda bo'lishi til uchun muhim sanaladi. Azim Hojiyev o'zbek tili imlosiga doir bir qator ishlarni o'tgan asrning oxirlarida yaratishga harakat qildi. Olim 1995- yilda Shavkat Rahmatullayev bilan hamkorlikda "O'zbek tilining imlo lug'ati" ni tuzdilar. Ushbu imlo lug'at mustaqillikdan keyin o'zbek tilida lotin alifbosida nashrga chiqarilgan birinchi imlo lug'atlaridan biri edi. Shu munosabat bilan imlo qoidalaridagi tovush-harf munosabatiga bag'ishlangan qismi qayta yozildi. Kril alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi ancha yillar amalda xizmart qilib keldi. Shuning bilan birga bu yozuvni to'laligicha turkiy tillar tarmog'iga kiruvchi o'zbek tilini ifoda etolmaydigan kamchiliklari ham mavjud ediki, yangilanayotgan alifboni ham o'zbek tilining tabiatiga moslashtirish masalasi ham asosiy mavzulardan edi.

O'tgan asrda o'zbek tilining imlosi masalasida lug'atlar nashr etilgan. Xususan, S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ahmedovlar tarafidan nashrga chiqarilgan "O'zbek tilining imlo lug'ati" o'z ichiga so'z va so'zshakllarni qamrab olgan holda krill alifbosida ommaga taqdim etildi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг имло луғати.Т.: Фан. 1976. 326

Istiqoldan so'ng juda ko'p sohada yangi tushunchalar va ularning yangi atamalariga ehtiyoj sezildi. Jamiyatning barcha sohalari yangilangani kabi imloning ham zamonga mos tarzda yangittan chop etish muhim masalaga aylandi. Buning barobarida O'zbekiston mustaqillikka erishgach qator terminlar eskirib yangi terminlar tilimizga kirib kela boshladi. Masalan, o'tgan asrda qo'llanilgan juda ko'p terminlar arxaiklashib, yangi tushunchalarga o'rnini berdi. Azim Hojiyev ushbu o'zbek tilining yangi davrida nafaqat imlo masalasida, balki ilmiy terminlarning qo'llanishi haqida mulohazalar yuritdi. Azim Hojiyevning o'tgan asrda krill yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida nashrga tayyorlagan ishlari ham bor. O'zbek tili imlosida doim bahsli bo'lgan qo'shma so'z, juft so'z, takroriy so'z masalalariga bag'ishlangan "O'zbek tilida qo'shma, juft, takroriy so'zlar" 1963-yilda nashrga chiqdi. Olimning ushbu kitobi nafaqat faqatgina qo'shma, juft, takroriy so'zlarning semantikasiga bag'ishlanibgina qolmay, ularning imlosi masalasiga ham to'xtalib o'tilgan<sup>2</sup>. Olim o'zbek tilida qo'shma, so'zlarning ajratib yozish yoki qo'shib yozish, ajratib yozilishi yoki chiziqcha bilan yozilishi kerak bo'lgan so'zlarning imlosiga doir qarashlarini ushbu kitobida berishga harakat qildi. Ma'lumki o'zbek tili 1956-yilda "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" qabul qilindi. Unga qadar ham o'zbek tili imlosi masalasiga doir ilmiy ishlar ham nashrga chiqqan edi. O.Usmonovning 1947-yilda "O'zbek tili imlosi" kitobi qo'shma so'zlar va ularning imlosiga doir kamchiliklari bo'lsa ham, kata yangiliklardan biri bo'ldi<sup>3</sup>. Azim Hojiyev o'zbek tilida qo'shma so'zlar bilan bog'liq imlodagi kamchiliklar masalasi sifatida quyidagi nuqtalarga e'tibor qaratadi: 1. Qo'shma so'zlarni ajratib yozish prinsipi hamda qo'shma so'zlarni qo'shib yozish prinsipi ma'lum qoidaga ega emas. 2. Berilgan qoidalarni o'zbek tilidagi barcha qo'shma so'zlarga tadbiq etib bo'lmaydi<sup>4</sup>. Azim Hojiyev qo'shma so'zlarning ajratib yozilishi masalasiga ularning talaffuzi ham qaysi komponentlardan tashkil topganligini hisobga olgan holda yondashadi. Faqat shuni ta'kidlash lozimki, til rivojlanish va tarqqiyotda bo'lganligi bois o'zbek tilida ham imlo masalalariga yondashuv davrlar kesimida o'zgarilib borishi tabiiy. Azim Hojiyev yuqoridagi kitobida ajratilib yoziladigan qo'shma so'zlar imlosiga to'xtalar ekan quyidagi qo'shma so'zlarni ajratib yozilishi kerakligini ta'kidlaydi: *sheryurak, arslonqomat, odamsifat, itfe'l* kabi. 1995-yilgi imlo qoidalari ko'ra bu so'zlar hozir qo'shib yoziladi.

Azim Hojiyev qo'shma so'zlarning ajratilib yozilishi ularning ohangi va ular o'rtasidagi grammatik aloqadan kelib chiqib tahlil qilinishi kerakligini ta'kidlaydi. Azim Hojiyevning imlo masalsidagi merosi istiqlol davri tilshunosligi uchun ham kata manba bo'lib xizmat qildi. Xususan, istiqlol davridan keyin bir qator imlo lug'atlar nashrdan chiqdi. Ulardan 2013-yilda N. Mahmudov tahriri ostida 85 ming so'zdan iborat "O'zbek tilining imlo lug'ati", 2020-yilda fan-tex sohasida yuzaga kelgan ixtirolarga oid atamalarni o'z ichiga olgan 19 ming so'zdan iborat "O'zbek tilining imlo lug'ati" nashrga chiqqan bo'lsa, 2023-yilda umumta'lim maktablari, akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan 27 mingdan iborat so'z va so'zshakllar imlosiga bag'ishlangan "O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati" nashrga chiqdi. Ushbu nashrga chiqqan lug'atlar hozirgi o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarning imlosini ham o'zida aks ettiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Azim Hojiyevning o'zbek tili imlosi masalasidagi ilmiy qarashlari istiqlol davrida o'ziga xos yo'l ko'rsatuvchi vazifa o'tadi. Imloviy masalada qoldirgan boy merosi o'zbek tili taraqqiyoti rivojiga kata hissa qo'shdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. *Pedagogika*, 171.

<sup>2</sup> Хожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт, такрорий сўзлар.Т.: Фан.1963. Б 114.

<sup>3</sup> Усмонов О. Ўзбек тили имлоси.Т.: Фан. 1947. Б.238

<sup>4</sup> Хожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт, такрорий сўзлар.Т.: Фан.1963. Б 116.

2. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE" CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. *NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN*, 1(4).
3. Akbarovich, A. A. (2023). MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 163-166.
4. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. *МАКОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 11(11).
5. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
6. Djurayev, M. E., & Qozoqboyeva, D. H. (2025). BEKOBOD SHAMOLINI GEOGRAFIK BAHOLASH. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(3), 402-405.
7. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG 'ON SO 'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 57.
8. Ixtiyor, E., Axrorov, A., & Mamaraximov, S. (2024). TERMINOLOGIYADA GIPERO-GIPONIMIK HODISALAR. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 12-15.
9. Akbarovich, A. A., Ixtiyor, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O 'ZARO BOG 'LIQLIGI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 4-7.
10. Jurayev, J. (2022). Akhrorov Alisher Akbarovich. EXPRESSION OF GENERAL HIDDEN MEANING IN ARTICLES. *JOURNAL OF PHILOLOGY HORIZONS*, 11(11).
11. O'G, R. Z. S. I., Tursunkulovich, M. A., & Qizi, E. F. B. (2024). TA'LIMDA RASMIY ISH QOG 'OZLARINING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 22-25.
12. Fazilat, E., Lutfinisa, D., & Sirojiddin, M. (2024). OZBEK SAHNA ASARLARI TILINING AYRIM JIHATLARI SHARHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 16-21.
13. Fazliddin, S., Alisher, A., Azizbek, M., & Shoxistaxon, X. (2024). AZIM HOJIYEVNING LEKSIKOGRAFIKAGA OID MEROSI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 30-33.
14. Mamatqulov, A. (2022). YORMAT TOJIYEV NAZDIDA SINONIM AFFIKSLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 39-41.
15. Sharipov, F. G., & Mamatqulov, A. R. (2021). O'ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGI HOLATI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 168-174.
16. Mamatqulov, Azizbek (2024). AZIM HOJIYEV LUG'ATSHUNOS OLIM. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4 (1), 525-259.
17. Shoxistaxon, X., Sayyora, Y., & Mamatqulov, A. (2024). QO 'SHMA SO 'ZLARNING VUJUDGA KELISHI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 60-65.
18. Azizbek, M. HOZIRGI O 'ZBEK ADABIY TILINING TARIXIY TARAQQIYOTIDA LEKSEMALARINING MORFEMAGA O 'TISHI XUSUSIDAGI FARAZLAR. *PERSPECTIVES OF PHILOLOGY AND PRACTICAL POSSIBILITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES*, 204.
19. Qushoqovich, A. O. K. (2022). Importance of using terms in English and uzbek.
20. Latipov, M. (2024). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IS'HOQXON IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O 'RGANILISHI HAQIDA. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 9(60).